

# RESPUBLIKA SANOATI SOHASIDAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH ZARURIYATI VA UNING HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI

Nomozov Mamarajab Toshtemir o'g'li

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 53-maktab Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda sanoatni modernizatsiya qilish, uning eksport salohiyatini oshirish, hududiy rivojlanishdagi muvozanatni ta'minlash hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruriyati tahlil qilingan. Shu bilan birga, sanoat sohasida olib borilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari, qabul qilingan qonun va qarorlar ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat, modernizatsiya, diversifikatsiya, huquqiy asos, iqtisodiy islohotlar, investitsiya, innovatsiya.

**Аннотация:** В данной статье проанализирована необходимость модернизации промышленности в Узбекистане, повышения ее экспортного потенциала, обеспечения баланса в региональном развитии и внедрения инновационных подходов. При этом правовые основы проводимых реформ в промышленной сфере, принимаемые законы и решения изучаются с научной точки зрения.

**Ключевые слова:** промышленность, модернизация, диверсификация, правовая основа, экономические реформы, инвестиции, инновации.

**Abstract:** This article analyzes the need to modernize industry in Uzbekistan, increase its export potential, ensure a balance in regional development and introduce innovative approaches. At the same time, the legal foundations of the ongoing reforms in the industrial sector, the laws and decisions adopted are studied from a scientific point of view.

**Keywords:** industry, modernization, diversification, legal framework, economic reforms, investments, innovations.

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyati yuzaga keldi. Xususan, sanoat sohasida bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi boshqaruv tizimlarini joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratildi.



Shu bilan birga, sohada samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish islohotlarning asosiy tarkibiy qismi bo'ldi. Sanoat tarmog'i yirik ishlab chiqarish instituti bo'lishi bilan birgalikda, aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish joylarini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat tarmog'ini ish bilan bandlikni oshirishdagi yana bir muhim xususiyati qayta ishlash va qo'shimcha qiymat yaratishdagi faolligi hisobiga yuzaga chiqadi. Ya'ni, qayta ishlovchi korxonalarning ko'paygani va qo'shimcha qiymatni ortgani sari sanoatda ham band bo'lgan xodimlar soni ortaveradi. Natijada qo'shimcha qiymat va qayta ishlashning o'sishi bilan sanoatda band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Sanoat jahon iqtisodiyotida ishtirok etayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam beradi. Natijada, barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslari, fan- texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Bu esa o'z navbatida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materillari ishlab chiqarish, yengil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "... mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi [1].

Chunki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shunga muvofiq, izchillik bilan amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tufayli milliy sanoat salohiyati tobora yuksalib bormoqda.

#### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublika sanoati sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va uning huquqiy asoslarini shakllantirish masalasi bo'yicha qator mahalliy va xorijiy olimlar, shuningdek, xalqaro moliya institutlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Quyida ushbu masalaga oid adabiyotlar sharhi keltiriladi.



Huquqshunos olimlar (M. Saidov, I. Tulyaganov) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun, shuningdek, Prezident farmonlari va qarorlarining sanoat rivojidagi roli yoritilgan. Ular huquqiy asoslar sanoatni modernizatsiya qilish, chet el investitsiyalarini jalb etish hamda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim omil ekanini ta'kidlashadi.[2]

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda O'zbekiston sanoati bo'yicha qiyosiy tahlillar mavjud. Bu manbalarda mamlakatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi, eksport salohiyati hamda energiya samaradorligini oshirish zaruriyati borasidagi ma'lumotlar berilgan. Masalan, Jahon bankining "Uzbekistan Economic Update" (2023) hisobotida O'zbekistonda sanoatni raqamlashtirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish global raqobat uchun hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatilgan.[3]

Mahalliy olimlar (X. Xolmatov, D. Qodirov)ning izlanishlarida hududiy sanoat siyosati, innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari va sanoat zonalarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Ularning fikricha, hududlarda kichik sanoat zonolari faoliyatini kuchaytirish nafaqat ishlab chiqarishni kengaytiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qiladi.[4]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "Harakatlar strategiyasi" farmoni, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmon va boshqa qarorlar sanoat islohotlarining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ilmiy maqolalarda ushbu hujjatlarning iqtisodiy va huquqiy asoslari chuqur tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati yoritilgan.[5]

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

#### **ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Tahlillar natijasiga ko'ra, 2017-yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 33,5 foizni tashkil etgani [8] va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu haqida to'xtalib [2], "... hisobot yilida ham mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida mutanosiblikka erishilgani, modernizatsiya hamda diversifikatsiya tufayli yuqori sur'atlar ta'minlanganini alohida qayd etgani buning yaqqol tasdig'idir. Ya'ni, ... mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirildi. Bu biz uchun kelgusi yilda qo'shimcha 1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasi barpo etildi. Bu esa qo'shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi.



Shuningdek, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida ikkinchi bug'-gaz qurilmasi, Qizilqum bag'ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo'yicha ishlar davom etmoqda. Hozirgi vaqtda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan "Yoshlik - 1", "Yoshlik - 2" konlarini o'zlashtirishga kirishildi. Sardoba, Markaziy Farg'ona va To'palang suv omborlarini qurish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda.

Bu yirik inshootlar ham, hech shubhasiz, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim voqea bo'ladi. Farg'ona - Marg'ilon yo'nalishidagi temir yo'l tarmog'i ayni paytda elektrlashtirilmoqda. Yana bir yirik obyekt - Qandim gazni qayta ishlash kompleksi ishga tushirilishi hisobidan 2018 yilda qo'shimcha ravishda 4 milliard 100 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 67 ming tonnadan ziyod kondensat, 106 ming tonnadan ortiq oltingugurt ishlab chiqarish imkoni yaratiladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti- ning lokomotivlaridan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo'shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan bloklar to'liq faoliyat boshlaydi. Shular qatorida "O'zagrotexsanoatxolding" aksiyadorlik jamiyatida yangi yilda 5 mingdan ko'proq zamonaviy traktorlar, mingdan ziyod paxta terish mashinasi va 2 mingdan ortiq pritseplar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi" [2].

Bunday yuqori ko'rsatkichlar chuqur o'ylangan va puxta tahlillar asosida ishlab chiqilgan, bir-biri bilan uzviy bog'liq strategik dasturlar ijrosining samarasidir. Aytish mumkinki, 2017-2021 yillarda sanoatni yuksak darajada rivojlantirish dasturi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil ijrosi barcha tarmoqlar faoliyatida qo'shimcha qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlarni tayyorlashda yangi sahifalar ochmoqda. Ayni vaqtda sanoat mahsulotlarining qariyb 80 foizi ularning hissasiga to'g'ri kelayotgani bunga asos bo'ladi [1].

Mustaqillik yillarida mashinasozlik va avtomobilsozlik, kimyo va neftkimyo, oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoati, farmatsevtika va mebelsozlik, telekommunikatsiya uskunalari, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish kabi tarmoqlar jadal taraqqiy etib sanoatimizning lokomotivlariga aylandi. Bularning barchasi xalqimizning yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'zimizda ishlab chiqarilgan arzon va sifatli tovarlar hisobidan qondirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan sohalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilish va ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Shu bois sanoat korxonalariga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish bugungi kundagi ustuvor vazifalaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda.




Keyingi yillarda sanoat korxonalari moliviy-xo'jalik faoliyatini tartibga solish tizimini shakllantirish va bosqichma-bosqich takomillashtirish natijasida sohada bir qator siljishlarga erishildi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish, avtomobil sanoatida ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga va eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga oshirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda sanoat sohasida (qurilish bilan hisoblaganda) mamlakat YAIMining uchdan bir qismi yaratilib, iqtisodiyotda band bo'lganlarning deyarli 14 foizi mazkur soha hissasiga to'g'ri keladi. So'nggi 5 yilda sanoat korxonalari soni 2 baravar ko'payib, 100 mingtaga yaqinlashdi. Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirish amalga oshirilmoqda.

1-rasm. O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi (trln.so'm va foizda)



Yuqorida keltirilgan 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika sanoat korxonalari tomonidan 551,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021 yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi\* 105,2 % ni tashkil etdi. Demak, mamlakat sanoat tarmoqlarida o'sish ko'rsat- kichiga erishilganligidan dalolat beradi.

Prognozashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) mutaxassislari tomonidan so'nggi yillarda O'zbekistonda sanoat sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning eng muhim natijalari o'rganildi.



2017-2022 yillarda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 21,1 foizdan 26,7 foizga oshdi. Bu davrda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'sish 141,3 foizni tashkil qildi. Bunday barqaror o'sish YAIMda sanoatning ulushi ortishiga olib keldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib, o'sish sur'ati o'tgan davr mobaynida 147,4 foizni tashkil etdi. Bundan tashqari, elektr, issiqlik va gaz ta'minoti tarmog'i (139,2 foiz), shuningdek, tog'-kon sanoati (130,4 foiz) jadal sur'atlarda rivojlandi.

O'zbekiston sanoatining 83,2 foizini ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i tashkil etadi. Bu yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, xom-ashyoni qayta ishlash darajasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tarmoqlarni rivojlantirish kompleks dasturlari hayotga tatbiq etilayotgani natijasidir.

O'rta va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushining 52,7 foizdan 61,7 foizga oshgani ham sanoat tarkibidagi sifat o'zgarishlaridan dalolat beradi. Bu ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lami oshgani dalilidir.

Masalan, portlandsement ishlab chiqarish shu davrda 1,3 barobar, qo'rg'oshinli akkumulyatorlarni ishlab chiqarish 1,4 barobar, avtomobil dvigatellarini ishlab chiqarish - 2,5 barobar, yengil avtomobillarni ishlab chiqarish 2,3 barobar, sovutgich va muzlatgichlarni ishlab chiqarish - 3,7 barobar oshdi [13].

Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida yangi sanoat korxonalarining faoliyat boshlaganligi respublika ko'rsatkichlarida yetakchilik qilmoqda. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining Qashqadaryo filiali tomonidan Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanib viloyatning 2023-yil yanvar-iyun oylaridagi sanoat ko'rsatkichlarining tahlil ma'lumotlaridan foydalanadigan bo'lsak, viloyat bo'yicha 14212,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 foizga oshgan. Viloyat sanoat tarkibida tog'-kon sanoatining ulushi 5,1 %, ishlab chiqariladigan sanoat 80,8%, elektr, gaz, bo'g' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 13,7%, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya chiqindilarini yig'ish va utilizatsiya sanoati 0,4% ni tashkil qilgan.

## XULOSA

Tahlil ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, o'tgan davr mobaynida sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi, mahsulot ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Lekin hali mamlakatimiz sanoati rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilayapti, deb bo'lmaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, respublikada amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakat makroiqtisodiy barqarorligining oshishi bilan birga aholi turmush farovonligiga ijobiy ta'sir etmoqda.





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonining 1-ilovasi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 23 dekabr 2017 y. № 258 (6952).
3. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni // Xalq so'zi. 2012 yil 7 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi Qonuni. Qonun va qarorlar. – T.: O'zbekiston, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.12.2010 y. № PQ,-1442 sonli "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishari to'g'risida"gi qarori.
6. A.Ortikov. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.

